

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIYVAO‘RTAMAXSUSTA’LIMVAZIRLIGI
TOSHKENTDAVLATSHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**JAHON SIYOSATI VA TARIXFAKULTETI
JAHONSIYOSATI KAFEDRASI**

Qodirova Amira

**BMTTUZILMASI: ASOSIY ORGANLARI,
IXTISOSLASHGAN MUASSASALARI,
DASTURVA FOND LARI**

KURS ISHI

5A120701 – Xalqaro munosabatlar

Kursi shirahbari: J.D. katta o‘qit.
Ochilov B.E.

Toshkent-2013

MUNDARIJA

bet

KIRISH.....	3
1-BOB. XALQARO TASHKILOTLARNI TADQIQ ETINING NAZARIY MASALALARI.....	8
1.1. Xalqaro tashkilotlar tushunchasi va ularning huquqiy tabiati.....	8
1.2. Xalqaro tashkilotlar tasnifi.....	14
1.3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining vujudga kelishi, maqsad va vazifalari....	18
2-BOB. BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING TUZILMAVIY XUSUSIYATI.....	21
2.1. BMTning asosiy organlari.....	21
2.2. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari, dastur va fondlari.....	26
2.3. O‘zbekistonning BMT doirasidagi faoliyati va uning huquqiy asoslari.....	32
XULOSA.....	43
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	45

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi paytda butun jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi bilan yer yuzida tinchlik-barqarorlikni saqlash, aholi farovonligi, uning munosib turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, ta'lim, tibbiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi umumbashariy vazifalar tobora muhim ahamiyat kasb etib, ularni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarning roli kuchayib bormoqda.

Xalqaro tashkilotlar deb butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida davlatlar, milliy jamiyat uyushmalarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy-texnik asoslarda birlashuvidan tashkil topgan tashkilotlarga aytiladi. Xalqaro tashkilotlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, ularning faoliyati aniq bir milliy davlat chegarasidan chetga chiqib, davlatlararo vazifalar va muammolarni hal etishga qaratilgan bo'ladi. Bunday tuzilmalar bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama munosabatlarning eng muhim va samarali shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tashkilotlarni tashkil etish borasidagi harakatlar nisbatan qadimiy davrlardan ma'lum bo'lsa-da, zamonaviy tushunchamizdagi hozirgi xalqaro tashkilotlar asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran tashkil topa boshlagan. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng bunday tashkilotlar faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi va ular keng rivojlana boshladi.

Hozirgi kunda dunyoda har xil mazmun va maqsadga bo'ysundirilgan 2,5 mingdan ortiq xalqaro tashkilot mavjud. Jahonda 350 dan ortiq hukumatlararo tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni hududiy jihatdan (universal, mintaqaviy), qatnashchilar soniga ko'ra (ikki tomonlama, ko'p tomonlama), vakolat doirasi–kompetensiyasiga ko'ra (masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon sayyohlik tashkiloti), faoliyat sohasiga ko'ra (masalan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy) va a'zolik xususiyatiga ko'ra (ochiq va yopiq tashkilotlar)ga bo'lib tasniflash mumkin. Xalqaro huquq qoidalariga ko'ra, hukumatlararo tashkilotlar hamda bu

sohada faoliyat ko'rsatadigan mansabdor shaxslar, diplomatlar singari, alohida imtiyoz va immunitetga egadir. Hukumatlararo tashkilotlarning xalqaro huquqdagi o'ziga xos o'rni shundan iboratki, jumladan, ular Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda dunyoning turli mintaqalaridagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositalari bo'lib xizmat qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida qo'llanadigan atamalarda davlatlararo tashkilotlar "Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar" deb yuritiladi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning davlatlararo tashkilotlardan farqi shundan iboratki, ular doimiy qarorgohiga, xalqaro fuqaroviy xizmatga, o'z byudjetiga ega bo'lib, unga a'zo davlatlar xalqaro huquq sub'ektlari hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida xalqaro shartnomalar tuzishi, turli majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi mumkin.

BMTUstavidatashkilotningboshmaqsadi

"xalqarotinchlikvaxavfsizlikniqo'llab-quvvatlash"

deyabelgilanganvaushbumaqsadgaerishishyo'lihamko'rsatilgan:

"tinchlikkabo'lgantahdidnioldiniolishvatugatish,

agressiyaaktlarinivatinchlikningbuzilishiniboshqachako'rinishlarinibostirishhuchunkollektivchoralarnisamaraliqo'llash".

SHuningdek,

BMTUstaviningmuqaddimasidaxalqarotinchlikningquyidagiasoslariko'rsatibberdi:

urushgabarhamberish; asosiyinsonhuquqlariniishonchlimustahkamlash;

xalqarohuquqningahamiyatinioshirish;

ijtimoiytaraqqiyotgayordamberishvaerkinhayotshart-

sharoitlariniyaxshilashhamdabumaqsaddauchaasosiyshartnibajarish: birgalikda,

yaxshiqo'shnicilikmunosabatlaridatinch-totuvyashash;

xalqarotinchlikvaxavfsizliknita'minlashhuchunkuchlarnibirlashtirish;

qabulqilinganprinsiplarvausullarnio'rnatishorqaliqurollikuchlardanumumiymanfaatlardafoydalanish¹.

Mustaqil O'zbekiston davlati xalqaro hamjamiyatda o'zini namoyon qilmoqda va uning yondashuvlari hududiy va global miqyosda qarorlar qabul

¹ Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. –Т.:ЖИДУ, 2002. –Б.276-278.

qilishda inobatga olinmoqda. Chunki O'zbekiston singari yangi mustaqil davlatlarning manfaatlarini hisobga olmasdan turib xalqaro hayotda yuz berayotgan hodisalarni anglash imkoniyatining yo'qligi ayon bo'lib qolmoqda. "Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz"¹.

Bugungi kunda hukumatlararo xalqaro tashkilotning eng samarador tuzilmasi bo'lmish Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida O'zbekiston teng huquqli subekt bo'lib kirdi. Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv jarayoni haqida gapirganimizda, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz"².

Umumlashtiribaytganda, bugungi kunda BMT va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlanib bormoqda.

Buni Prezidentimiz I.A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasidagi to'rtinchi marta taqdimotida, tashkilotning mamlakatimizdagi vakolat xonasida faoliyatida 2010 yil BMT Bosh Kotibi Pa Gi Munning O'zbekistonga tashrifidan ham kuzatish mumkin.

Kursishimavzuning o'rganilganlik darajasi. Kursishini tayyorlashda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning davlatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tamoyillari, xalqaro tashkilotlar doirasida, xususan, BMT Bosh Assambleyasida O'zbekiston pozitsiyasi yuzasidan so'zlagan nutqlariga tayanildi².

BMT strukturasi, asosiy va ixtisoslashgan organlari faoliyati, ularning huquqi va qomoni yoritishda BMT Nizomidan keng foydalanildi³.

¹I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". -T.: O'zbekiston, 1997. 297-bet.

²I.A. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". -T.: O'zbekiston, 1997. 300-bet.

²Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.:Ўзбекистон, 1997, -326 б.; Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. -Т.:Ўзбекистон, 2005. -144 б.; Каримов И.А. Жамаиятимизни эркинлиштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. -Т.15. -Т.:Ўзбекистон, 2005. -320 б.; О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. 20.09.2010//http://press-service.uz/uz/news/show/vistupleniya/address_by_h.e._mr._islam_karimov_presid/

³Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низоми ва Халқаро суд Статути. -Т.:БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази, 2002. -62 б.

Xalqarohuquqmohiyati, xalqarotashkilotlarhuquqi,
BMTningtashkilotpishivaorganlarifaoliyati,
turlixalqarohuquqisohalariolimlarOdilqorievX.T., B.E.Ochilov¹, Mirzajanov K.,
Xakimov R.², Tuxmuxamedov R.A., Xakimov R.T.³asarlarida tahlil qilgan.

O‘zbekistonningxalqaroshartnomalariUmaraxunov I.M.⁴ishidaochibberilgan.

O‘zbekistonningBMTbilanhamkorlikyo‘nalishlariqismanS.Jo‘raev⁵o‘quvqo‘llanmalaridayoritilgan.

BMTningbugungikundagifaoliyati,
tashkilottizimidagiislohotlarvamammolar,
tashkilotningzamonaviyfaoliyatyo‘nalishlari

Murthy C.S.R. ⁶,

FedorovV.N.⁷singari xorijlik tadqiqotchilartomonidan ochibberilgan.

Xalqarotashkilotlarmaqomi, mazkurtushunchaninghuquqiytahlili,
xalqarotashkilotlarhuquqiningvujudgakelishi,
xalqarotashkilotlarborasidagiqarashlarasarlaridayoritibberilgan.

Kursishining manbalari. Kursishining manbalarida, avvalo, metodogik asos hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma’ruza va nutqlari, shuningdek mahalliy, Rossiyalik va MDH mintaqasida faoliyat yuritayotgan olimlar va xorijlik mutaxassis-olimlarining asarlari, chop ettirgan risola va ilmiy maqolalari tashqil etadi. Internet manbalarini shular jumlasidandir.

¹Одилкориев Х.Т., Очилов Б.Э. Хозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. –Т.:ЖИДУ, 2002. –559 б.; Очилов Б.Э. Халқаро ҳуқуқнинг асосий принциплари ва Ўзбекистон Республикаси Конституцияси: Soft Power концепциясини қўллаш нуқтаи-назарида тahlil // XXI асрда жаҳон сиёсати архитектурасидаги ўзгаришлар: Soft Power концепциясини татбиқ этиш ва Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг ташқи сиёсатга оид меъёрларини қўллаш амалиёти: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги микёсидаги иккинчи анъанавий-амалий конференция материаллари тўплами (Тошкент, 16 декабрь 2011 й.) / Масъул муҳаррирлар: Ш.А.Ёвқочев, Б.Э.Очилов. –Т.: ТошДШИ, 2011. –17-24.

²Mirzajanov K., Xakimov R. Mejdunarodnoe pravo. –Т.: Mehnat, 1993.

³Tuxmuxamedov R.A., Xakimov R.T. Osnovi mejdunarodnogo prava. Т., 1998.; Xalqaro huquq: Ma’ruzalar kursi / Mas’ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A. X. Saidov. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 279 b.

⁴Umaraxunov I.M.Respublika Uzbekistan i mejdunarodnoe dogovornoe pravo. Т., 1998.

⁵Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. –Т.: Академия, 2007. –301 б.

⁶Murthy C.S.R. New Phase in UN Reforms: Establishment of the Peacebuilding Commission and the Human Rights Council. // International Studies. –Vol.44. –№.1. –2007. –P.39-56.; Murthy C.S.R. The U.N. Counter-Terrorism Committee: An Institutional Analysis // FES Briefing Paper. –№.15. –2007. –P.2-4.

⁷Федоров В.Н. ООН, другие международные организации и их роль в XXI веке. – М.: Логос, 2005. –С.42-78.

Kursishining maqsadi. Kursishida BMT strukturasi, xususan, uning asosiy organlari, ixtisoslashgan muassalari, dastur va fondlari faoliyatini yoritish, huquqiy jihatdan tahlil etish maqsad qilib olindi.

Kursishining vazifalari. Yuqorida ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quydagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- Xalqaro tashkilotlar tushunchasining huquqiy tabiatini tahlil etish;
- Xalqaro tashkilotlar tasnifi o'rganish;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining vujudga kelishi, maqsad va vazifalarini o'chib berish;
- BMTning asosiy organlari va ixtisoslashgan tashkilotlari, turlari dastur va fondlari o'rganish;
- O'zbekistonning BMT doirasidagi faoliyatining huquqiy asoslari aniqlash.

Kursishining ob'ekti. Xalqaro huquqda BMT o'rni, strukturasi, uning maqsad va vazifalari uning zamonaviy huquqiy maqomikursishi ob'ekti sifatida belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Bugungi kunda BMT strukturasi, xususan, uning asosiy organlari, ixtisoslashgan muassalari, dastur va fondlari faoliyatikursishining predmetini tashkil etadi.

Kursishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishining manbalarida, avvalo, metodologik asos hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma'ruza va nutqlari, shuningdek mahalliy, Rossiyalik va MDH mintaqasida faoliyat yuritayotgan olimlar va xorijlik mutaxassis-olimlarining asarlari, chop ettirgan risola va ilmiy maqolalari tashqil etadi. Internet manbalarini shular jumlasidandir.

Kursishning tuzilishi kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB.

XALQAROTASHKILOTLARNITADQIQETININGNAZARIYMASALALARI

1.1. Xalqaro tashkilotlar tushunchasi va ularning huquqiy tabiati

Xalqaro tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi aloqani vujudga keltiruvchi asosiy tashkilotlardir. F.F Martens ta'kidlaganidek, "yuqori madaniyatli xalqlar o'zlarini mustaqil qiyosiy tarzlarini saqlab qolishi uchun xalqaro aloqalarga muhtojdirlar". Boshqa davlatlarda harbiy texnika va san'at sohasidagi yutuqlar ortidan bormagan, hamda ushbu yutuqlardan foydalanmagan hukumat, o'z davlatini zarur mudofaa vositalaridan benasib qoldiradi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar yovvoyilik holatida bo'lganida xalqaro aloqalar hech bir ma'no kasb etmasdi¹.

Eramizdan avvalgiVI asrlarda qadimgi GreWiyada ilk domiy xalqaro birlashmalar tuzilgan edi. Bular shahar yoki jamoalar ittifoqi (masalan, Lakedemin yoki Simmakil Delossi) yoki qabila va shaharlarning diniy -siyosiy ittifoqlari edi (masalan, Delfin - Firmanillarning amfiktioniyasi). Ular kelajakdagi xalqaro tashkilotlarning namunasi bo'lgan. F.F Martens asosli ta'kidlaganidek, ushbu ittifoqlar faqatgina diniy maqsadlarda tashkil etilgan bo'lsalar-da lekin umuman davlatlar o'rtasidagi aloqalarga o'z ta'sirlarini ko'rsatgan: O'zga ijtimoiy faktorlar singari xalqlarni bir-birlariga yaqinlashtirib ularning yakkalikka bo'lgan intilishlarini yumshatdi².

Xalqaro tashkilotlar haqida gapirishdan oldin biz xalqaro tashkilotlar tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. Xalqaro tashkilotlar bu-muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida tuzilgan, davlatlar a'zolarining huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan hamda xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilgan davlatlarning umumlashmasidir.

¹Мартенс Ф.Ф.Современное международное право цивилизованных народов.—Т.1. —М., 1996.—С.163-164.

²Там же. —С.45.

Bunda xalqaro tashkilot tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi besh belgi: shartnomaga asoslanganlik, muayyan maqsadlarning mavjudligi, tashkiliy tuzum, mustaqil huquqlar va majburiyatlar, xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilganlik to'g'risida gap yuritish mumkin.

SHartnomaga asoslanganlik shuni bildiradiki, xalqaro shartnomaning odatda ko'p tomonlama ta'sis akti, xalqaro tashkilotning nizomi hisoblanadi. Lekin xalqaro shartnoma asosida emas, balki xalqaro tashkilot organining qarori asosida tashkil etilgan hollar ham yuz bergan. Bu BMTning savdo va rivojlanish (YuNKTAD), Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish bo'yicha (YuNIDO) o'tkazilgan konferensiyalari tashkil etilishi bilan bog'liq. Mazkur tashkilotlar Bosh Assambleyaning huquqiga binoan BMT Nizomining 22-moddasigi yordamchi organlar tuzish haqidagi qoidaga asosan tashkil etilgan edi. SHunga qaramay, YuNKTAD va YuNIDOni oddiy yordamchi organga kiritish mumkin emas. Bu organlar BMT tarkibida oddiy vazifani bajarmaydi, balki xalqaro tashkilotlar tizimiga ega bo'lgan organlardir. Bosh Assambleyaning 2152-qarori (1966-yil 18-noyabri) to'g'ridan-to'g'ri rivojlantirish bo'yicha tashkilot BMT Bosh Assambleyasi organi sifatida tuzildi va BMT doirasida muxtor tashkilot sifatida ish olib boradi.

Aniq bir yo'nalishdagi maqsadlarning mavjudligi xalqaro tashkilot tushunchasini belgilashda muhim belgi hisoblanadi. Tashkilotning maqsadlari xalqaro tashkilotning to'la huquqlilik xarakterini, uning tashkiliy tizimini, unga beriladigan huquqlarni belgilashda muhimdir. Tashkilotning mustaqil huquq va majburiyatlari unga a'zo bo'lgan davlatlarning huquq va majburiyatlaridan farq qiladi. Xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlari uning nizomlarida belgilangan bo'lib, ba'zi moddalar bevosita a'zo bo'lgan davlatlarga, boshqa moddalari esa, xalqaro tashkilotning o'ziga tegishlidir.

Misol uchun BMT Nizomining 19-moddasida shunday qayd etilgan¹: "Tashkilotga pul badallarini to'lash bo'yicha qarzi bo'lmagan tashkilot a'zosi, agar

¹Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низоми ва Халқаро суд Статути. –Т.:БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази, 2002. –Б.4.

qarzining jami o'tgan ikki yil uchun to'lanishi kerak bo'lgan badal miqdoriga teng bo'lsa yoki oshib ketsa, Bosh Assambleyada ovoz berish huquqidan mahrum qilinadi." BMT Nizomining 21-moddasi esa aksincha bevosita tashkilotning o'ziga tegishli: "Bosh Assambleya o'zining ichki qoidolari va ish tartibini o'zi belgilaydi. U har bir sessiyaga raisni o'zi saylaydi". Xalqaro tashkilotning unga a'zo bo'lgan davlatlar huquqlari va majburiyatlaridan farq qiluvchi mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'lish imkoniyati, birinchidan, o'z huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs sifatida shakllanadi, ikkinchidan, agar tashkilotlar xalqaro huquq subektlari bilan bevosita aloqador bo'lsa, xalqaro huquqning subekti bo'lib qoladi. Ularga asosan, bitimlar tuzish huquqi, imtiyoz va immunitetlarga bo'lgan huquq, vakolatlikka bo'lgan huquq, xalqaro huquqqa binoan xalqaro tashkilotning to'la huquqlilik xususiyatini bildiradi. Bu tashkilotning Nizomi va faoliyatida xalqaro huquqning keng e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, avvalo, prinsipiga mos kelish zaruratini bildiradi.

Xalqaro davlatlararo universal tashkilotlarning maqsadlari va faoliyat mavzulari barcha davlatlar uchun manfaatli bo'ladi. CHunonchi, BMTning maqsadi va faoliyat yo'nalishi jahondagi barcha davlatlar uchun muayyan manfaatga daxldor va shu tufayli bu tashkilot uning Nizomini tan olgan barcha davlatlar uchun ochiq bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda BMTning xalqaro tashkilotlari tushunchasi keng tarqalgan, ular qatoriga BMT, 16 ta ixtisoslashgan tashkilot, atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) BMTning xalqaro tashkilotlar tizimiga ega bo'lgan yordamchi tashkilotlar, YuNKTAD, YuNIDO, BMT taraqqiyot rejasi PROON, shuningdek, BMTning atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha konferensiyasi YuNBP kiradi. Xalqaro tashkilotlar xalqaro tizimning tarkibiy qismidir. Va, tabiiyki, xalqaro tizimning rivojlanishi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy taraqqiyot qonunlari umumiy tarzda xalqaro tashkilotlar taraqqiyotini, ularning ijtimoiy va huquqiy tabiatini ham belgilab beradi.

Turliijtimoiy tuzumdagi davlatlar ishtirokidagi tashkilotlar jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari, shuningdek turliijtimoiy tuzumdagi rivojlanish qonunlarining to'qnashuvi ta'siri ostida ish olib boradi. Bir ijtimoiy tuzumdagi

davlatlar ishtirokidagi tashkilotlar esa, aksincha, shu ijtimoiy tuzum taraqqiyoti qonunlari ta'siri asosida harakat qiladi. Hozirgi zamon xalqaro tashkilotlarning yuridik tabiati, ya'ni asosiy yuridik tavsifi xalqaro huquqni rivojlantirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotgan o'sha jamiyat taraqqiyoti qonunlariga ko'ra belgilanadi. Xususan, uning ilmiy texnika taraqqiyoti, iqtisodiy hayoti va boshqa jihatlarining baynalmilallashuvi, suveren davlatlarning mavjudligi mustamlaka tuzumining yo'q qilinishi natijasida xalqaro maydonda ko'pdan-ko'p yangi davlatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagilarga asoslanib, hozirgi zamon xalqaro tashkilotlarni davlatlararo uyushma sifatida quyidagi asosiy yuridik belgilar bilan farqlash mumkin¹:

1. Ular qoida tariqasida davlatlar tomonidan xalqaro shartnoma tuzish yo'li bilan tashkil etiladi va mana shu shartnomalar asosida ish olib boradi;
2. A'zo davlatlar o'zlarining tashkilotdan chiqish huquqini saqlab qoladi;
3. Xalqaro tashkilotlarning eng muhim tamoyillaridan biri a'zo davlatlarning suveren tenglik tamoyilidir. Bu tamoyil xalqaro tashkilotlarning huquq doirasi, uning nizomi, ya'ni suveren davlatlar tomonidan tuzilgan erkin shartnoma bilan belgilanadi; tashkilotning a'zosi bo'lgan har bir davlat muhokama qilish uchun takliflarni kiritishda, muhokamada ishtirok etishda teng huquqqa ega, tashkilotning organlariga teng huquq asosida vakil qilinadi; har bir davlat bitta ovozga ega bo'ladi.
4. Turliijtimoiy tuzumga mansub davlatlar ishtirokida tuzilgan xalqaro tashkilotlarda turliijtimoiy tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashash tamoyili hal qiluvchi rol, o'ynaydi. Bu tamoyil umumiy xalqaro tashkilotlarga taalluqli darajada bu tashkilotlarga yangi a'zolar kabi qabul qilish chog'ida tuzumning xilma-xilligi asosida kamsitishni taqiqlashni bildiradi;
5. Xalqaro tashkilotlarning qarorlari tavsiya xarakterida bo'ladi. Faqat shu tashkilotlar faoliyatining ichki masalalari bo'yicha qabul qilgan qarorlar ularning nizomiga binoan majburiylik xarakteriga ega;

¹Мартенс Ф.Ф.Современное международное право цивилизованных народов.—Т.1.—М., 1996.—С.167

6. Xalqaro tashkilotlar ularning nizomi asosida xalqaro huquqiy subektlilikning muayyan hajmiga ega bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar odatda: oliy organ; ijarachi organ; ma'muriy organ; maxsus masalalar bo'yicha qo'mita va komissiyalarni o'z ichiga oladi. Bir qator tashkilotlarda yuridik organlar tuzilishi ham ko'zda tutiladi. BMT tizimi o'z xususiyatiga ega, u asosiy va yordamchi organlarga bo'linadi.

Oliy (yalpi) organlar tarkibiga a'zo bo'lgan davlatlarning hammasi kiradi. Umumiy xalqaro tashkilotlarda har bir davlat qoida tariqasida aholisining miqdori va iqtisodiy qudratidan qat'i nazar bittadan ovozga ega bo'ladi.

Oliy organning huquqiy doirasiga tashkilot doirasining muhim masalarini, shu jumladan, ijrochi organlarni, bosh kotibni saylash. Tashkilot byudjetini tasdiqlash masalarini ko'rib chiqish kiradi.

Ijrochi organ umumiy tashkilotlarda, tor tarkibdagi organ hisoblanadi. Davlatlar favqulodda holatlarda, shuningdek milliy savdo tashkilotlari, misol uchun, INMARSAT kengashida ularning a'zolari bo'ladi. Bu organlarga saylovlar asosan ikki mezoniga binoan amalga oshiriladi. Bular: odil jo'g'rofiy taqsimot mezonini va o'ziga xos manfaatlar mezonidir.

Bunda har bir mintaqadan ijarachi organga muayyan miqdordagi a'zolar saylanadi. A'zolarining o'z-ko'pligi mana shu mintaqaga kiruvchi davlatlar miqdori bilan tartibga solinadi. Har bir jo'g'rofiy mintaqada doirasida navbatma-navbat ijarachi organga saylanadigan davlatlar ajratiladi. SHunday qilib, oldin yoki keyin tashkilot a'zolari bo'lgan hamma davlatlar muayyan jo'g'rofiy mintaqaga mansubligi orqali ijrochi organ tarkibiga saylanadi.

Turli tashkilotlarda o'ziga xos manfaatlar mezonini xilma-xil belgilanadi. Misol uchun, xalqaro dengiz kengashi tashkiloti (IMKO)da dengiz savdosida o'z manfaatlari birinchi o'rinda turadi yoki xalqaro kemachilik sohasida xizmat ko'rsatishda katta o'rin tutadi.

Ma'muriy organlar-kotibiyatdir. Kotibiyat bosh kotib (direktor) tomonidan boshqariladi. Kotibiyat xodimlari uch turkumga: oliy ma'muriy mansabdor shaxslar, mutaxassislar sinfi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga bo'linadi. Bosh kotib

oliy organ tomonidan 3-6 yilga qayta saylanadi. Kotibiyatning boshqa xodimlari Bosh kotib tomonidan tayinlanadi. Ular o'z vazifalarini tegishli haq hisobiga bajaradilar. Xodimlarni tashlash keng jo'g'rofiy asosda ularning malakasi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Maxsus masalalar bo'yicha qo'mitalar va komissiyalar borasida to'xtaladigan sifatida muvaqqat yoki doimiy qilib tuziladi. Ishtirokchilar tarkibi miqdori jihatidan ham xilma-xil bo'ladi. Ba'zilarining a'zolari qilib davlatlar belgilanadi. Boshqalarning a'zolari alohida shaxslar tariqasida belgilanadi. Ba'zilar cheklangan tarkibdagi organlar, boshqalarida esa tashkilot a'zolari bo'lgan barcha davlatlar a'zo hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar davlatlar tomonidan aniq maqsadlar va vazifalarni bajarish uchun tuziladi. Buning uchun muayyan huquq doirasiga ega bo'ladi, bu huquq doiralari Nizomda qayd etiladi.

Tashkilotlarning faoliyati mazkur tashkilot huquq doirasiga binoan amalga oshirilsagina, to'la huquqli bo'ladi. Xalqaro tashkilotlarning huquq doirasi uning organlari huquq doirasida namoyon bo'ladi. Xalqaro tashkilot bilan uning organlari huquq doirasidagiikki jihatni farqlab olmoq lozim: tashkilot qaramog'ida bo'lgan masalalar doirasida belgilovchi mavzu bo'yicha huquq doirasi va tashkilotning uning mavzu bo'yicha huquq doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha hujjatlarini belgilovchi huquq doirasidir¹.

Xizmat qiladigan ta'sis xalqaro shartnoma xalqaro tashkilot huquq doirasining asosi hisoblanadi. Chunki tashkilot huquq doirasidagi har qanday o'zgarish yoki uni organlar o'rtasida qayta taqsimlash ta'sis hujjatida bu masala bo'yicha shartnoma tartibida amalga oshiriladi.

Tashkilot organlarining qarorlari odatda o'zining majburiylik kuchiga qarab ikkiga bo'linadi. Bular: majburiy kuchga ega bo'lgan qaror va tavsiyalardir.

Qarorlar tashkilotning ichki hayoti bilan aloqador masalalar bo'yicha qabul qilinadi. Bu masalalar bajariladigan ish qoidalarini qarab chiqish, byudjetni

¹Xalqaro huquq: Ma'ruzalar kursi / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A. X. Saidov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. –B.232.

tasdiqlash va a'zolar o'rtasida xarajatlarni taqsimlash, tashkilotga a'zolar qabul qilish, a'zolikdan o'chirish, tashkilot organlariga saylovlar va boshqalardir. Hamma xalqaro tashkilotlarda tashkiliy masalalar bo'yicha a'zo bo'lgan davlatlar uchun majburiydir. Tashkilot faoliyatining o'zagiga taalluqli masalalar bo'yicha qarorlarga kelganda ular qoida tariqasida tavsiyalar xarekteriga ega. Bu, albatta, Bosh Assambleyaning qarorlarining siyosiy va axloqiy kuchini inkor etmaydi.

Xalqaro tashkilotlarning maqsad va vazifalari tushunchalarini farqlab olish lozim. Xalqaro tashkilotlarning maqsadlari xilma-xildir. BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tuzilgan. IKAO xalqaro aviatsiya muammolarini o'rganish, fuqaro aviatsiyasi uchun xalqaro normalar va qoidalar ishlab chiqish hamda xalqaro havo yo'llarida uchishning xavfsizligini ta'minlash, jahon intellektual mulki tashkiloti (VOIS) avtorlik huquqini xalqaro maydonda himoya qilish maqsadlarida ta'sis etilgan va boshqalar. Maqsadlardan kelib chiquvchi aniq vazifalar xalqaro tashkilotlar tomonidan muayyan xarakatalar orqali amalga oshiriladi. Mazkur xarakatalarning yig'indisi xalqaro tashkilotlarning vazifasini tashkil etadi. Bular axborot, normativ, nazorat va amaliy vazifalardir.

Axborot vazifasi xalqaro tashkilotlarning eng eski vazifalaridan biridir. U o'z vazifasini ikki jihatdan amalga oshiradi: birinchidan, har bir tashkilot bevosita o'zining tuzumi va faoliyatining asosiy yo'nalishiga taalluqli hujjatlar turkumini e'lon qiladi, ikkinchidan, tashkilot maxsus hujjatlar, ma'ruzalar, ma'lumotlar, o'zi shug'ullanadigan masalalar bo'yicha qisqacha bayonlar e'lon qiladi.

Normativ vazifani ikki ma'noda: xalqaro tashkilotning xalqaro huquq normalarini yaratishda bevosita ishtiroki; xalqaro tashkilotning davlatlarning normativ jarayonida ishtiroki sifatida tushuntirish mumkin. Hozirgi vaqtda xalqaro tashkilotlarning davlatlarning normativ jarayonida ishtirok etishi keng tarqalgan. BMT tarkibidagi ko'pgina hukumatlararo tashkilotlar mana shunday normativlik bilan shug'ullanmoqda.

Nazorat vazifasi keyingi davrda ayniqsa keng rivojlandi. Ko'pdan-ko'p xalqaro hujjatlar, nizomlar ko'p tomonlama Konvensiyalar, Faktlar mavjud bo'lib, ular mana shu hujjatlarda ifodalangan normalarni bajarishni turli shaklda nazorat

qilishni, shuningdek, nazoratni amalga oshirish uchun maxsus organlar tuzishni koʻzda tutdi¹.

Xulosaqilibaytganda, amaliy ish vazifasi xalqaro tashkilotlar vazifasi orasida yangidir. U, avvalo, BMT va uning maxsus muassasalariga taalluqli. Unga: BMTning amaliy ish boʻyicha vazifalari; BMTning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash boʻyicha operatsiyalari; BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan yosh rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam koʻrsatish va boshqa ayrim masalalar kiradi.

Xalqaro tashkilotlarning byudjeti aʼzo boʻlgan davlatlar badallari hisobiga toʻldirib boriladi. Har bir tashkilot badallari byudjetga ajratish tartibini oʻzi belgilaydi.

BMT badallari boʻyicha qoʻmita uchta mezonni:

1. Aholi jon boshiga tushadigan mablagʻ;
2. Jahon urushi tufayli mamlakat iqtisodiyotining ahvoli;
3. U yoki bu mamlakat tomonidan chet el valutasini sotib olish imkoniyatini belgilab beradi. Ularga binoan har bir davlat tashkilot byudjetiga badalning maʼlum foizini toʻlashi kerak.

Hozirgi vaqtda xalqaro tashkilotlar faoliyatining xarakterli xususiyatlaridan biri ularning byudjeti gʻoyat oʻsib borayotganligidadir. Misol uchun, 1946-yili BMT byudjeti 19 million dollarni tashkil etgan edi. 1988-1989-yillarda 986 million dollar miqdorida tasdiqlandi².

1.2. Xalqaro tashkilotlar tasnifi

Xalqaro tashkilot - bu xalqaro huquq va xalqaro shartnoma asosida, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy sohalarda hamkorlikni amalga oshirish uchun tuzilgan davlatlar birlashmasi boʻlib, uning uchun tegishli organlar tizimi davlatlar

¹Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Асосий омиллари. –Т., 2001. –Б.79.

²Маматқулов А. Халқаро ҳуқуқ. –Т.: Адolat, 1997. – Б.122.

huquq va majburiyatlaridan kelib chiquvchi huquq va majburiyatlarga va hajmi hamda a'zo davlatlar tomonidan belgilangan avtonom xohish irodaga ega bo'ladi.

Har qanday xalqaro tashkilot kamida quydagi olti sifatga ega bo'lishi kerak:

1.Xalqaro huquqqa muvofiq tashkil etilishi. Ushbu sifat asosiy hal etuvchi ahamiyatga ega. Har qanday xalqaro tashkilot huquqiy asoslarda tashkil etilishi shart. Xususan, har qanday tashkilotning ta'sis etilishi alohida davlatning tan olingan manfaatlariga dahl qilamsligi lozim. Tashkilotning ta'sis hujjati xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga va me'yorlariga (jus cogens) tamoyiliga mos kelmog'i lozim.

Agarda xalqaro tashkilot noqonuniy tarzda tuzilgan bo'lsa, yoki uning faoliyati xalqaro huquqqa zid bo'lsa, unda ushbu tashkilot ta'sis hujjati haqiqiy emas deb topilishi va uning faoliyati qisqa muddat ichida to'xtatilmog'i shart.

2.Xalqaro shartnoma asosida ta'sis etilishi. Qoidaga ko'ra xalqaro tashkilotlar xalqaro shartnomalar asosida (Konvensiya, Kelishuv, Traktat, Protokol va h.k) tashkil etiladi. Ushbu shartnoma ob'ekti subektlar (shartnoma tomonlari) va xalqaro tashkilot faoliyati hisoblanadi. Ta'sis hujjatida suveren davlatlar tomonlar sifatida qatnashadilar. Ammo so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlarda hukumatlararo tashkilotlar ham to'la huquqli qatnashchilar sifatida ishtirok etmoqda. Masalan, YEropa Ittifoqi ko'pgina xalqaro baliqchilik tashkilotlarining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar, kengroq vakolatli boshqa xalqaro tashkilotlar rezolutsiyalari asosida ham tashkil etilishi mumkin. Xuddi shu tartibda FAO Kengashi rezolutsiyalariga muvofiq, Hind Okeanida baliq ovi bo'yicha komissiya, markaziy-sharqiy Atlantikada baliq ovi bo'yicha qo'mita tashkil etilgan. Ushbu holatda FAO rezolutsiyalari faqatgina xalqaro tashkilot hujjati sifatida tavsif etilmay, balki davlatlararo kelishuvning spetsefik shakli sifatida talqin etilib, o'z navbatida xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjati bo'lib ham hisoblanadi. Ushbu tarzda tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar, hukumatlararo tashkilotlar singari tashkiliy tuzilmaga ega bo'ladilar.

3. *Faoliyatning aniq sohalarida hamkorlikni amalga oshirish.* Xalqaro tashkilotlar davlatlarning u yoki bu sohadagi intilishlarni muvofiqlashtirish maqsadida tuziladi.

4. *Tashkilotlarning huquq va majburiyatlarga egaligi.*

Yuqorida ta’kidlanganidek, tashkilotlarning huquq va majburiyatlari a’zo davlatlarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Davlatlar tashkilotga u yoki bu harakatni amalga oshirishni taqiqlab qo’yishga haqlidir va tashkilot o’z vakolati doirasidan chetga chiqa olmaydi. Masalan, MAGATE Nizomining 3-moddasi, Agentlikka o’z faoliyati davomida, o’z a’zolariga yordam ko’rsatishda siyosiy, iqtisodiy, harbiy yoki ushbu tashkilot Nizomiga zid bo’lgan boshqa talablar asosida harakat qilishni ma’n etadi. Bu yerda so’z xalqaro tashkilotning a’zo-davlatlari irodasidan mustaqil irodaga ega bo’lishi xususida boradi. Ushbu belgi, har qanday xalqaro tashkilot unga a’zo davlatlar tomonidan yuklangan huquq va majburiyatlarni bajarish usuli hamda vositalarini o’z vakolati doirasida mustaqil tanlash huquqiga ega ekanligini anglatadi.

Xulosa qilibaytganda, davlatlar uchun xalqaro tashkilot unga yuklangan huquq va majburiyatlarni bajarish usuli emas. Aynan xalqaro tashkilot, xalqaro ommaviy va xususiy huquq subekti sifatida o’z faoliyatining samarali usulini tanlash huquqiga egadir.

1.3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining vujudga kelishi, maqsad va vazifalari

BMT bosh maqsadi global xavfsizlikni ta’minlash va ushbu yo’nalishda tashkilotni zomiga ko’ra BMT xalqlar va millatlar harakatlarini muvofiqlashtirish markazi hisoblanadi¹.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti – dunyodagi umuminsoniy manfaatlar asosida faoliyat olib boradigan eng nufuzli xalqaro tashkilot (1945 yil 24 oktyabr). BMTga

¹Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низоми ва Халқаро суд Статути. –Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази, 2002. –Б.15.

hozirgi vaqtda 192 ta mamlakat a'zo. BMT – yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlar va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945 yilda, Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilotdir. Aslida bunday xalqaro tashkilotni tuzish zarurati Birinchi jahon urushidan keyinroq ayon bo'la boshlaydi. Shu maqsadda dastlab 1919 yilda “Millatlar Ittifoqi” nomli xalqaro tashkilot ta'sis etiladi va u 1946 yilgacha Shvetsariyaning Jeneva shahrida faoliyat olib boradi. Ammo u davrda demokratik va tinchliksevar kuchlarning uyushqoq emasligi va zaifligi tufayli Millatlar Ittifoqi xalqlarning umidlarini oqlamaydi, u Birinchi jahon urushida g'alaba qozonib, yetakchi mustamlakachi davlatlarga aylangan Buyuk Britaniya va Fransiyaning quroliga aylanib qoladi. Ikkinchi jahon urushi davomida va undan keyingi vaqtda 1919-1939 yillar mobaynidagi ana shu achchiq tajriba inobatga olinadi, tegishli xulosalar chiqariladi. Xullas, o'tmish sabog'i yangi xalqaro tashkilotlarning butunlay boshqacha bo'lishini talab qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti to'g'risidagi dastlabki fikrlar 1942 yilda tajovuzkor fashistik rejimga qarshi kurash olib borayotgan mamlakatlar rahbarlari va namoyandalari tomonidan o'rtaga tashlanadi. 1943 yili Buyuk Britaniya, AQSH, SSSR va Xitoy tashqi ishlar vazirliklarining qo'shma kengashida bu fikr aniq ifodalanadi. BMTning nizomi 1944 yilda xuddi shu 4 davlat vakillarining Dumbarton-Oksdagi konferensiyasida ishlab chiqiladi va 1945 yil iyunida San-Fransiskoda ta'sis konferensiyasida imzolanib, 1945 yil 24 oktyabrda kuchga kiradi. Shu boisdan ham 24 oktyabr butun dunyoda BMT kuni sifatida nishonlanadi¹. BMT ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2013 yilda esa ular soni 193 ga yetdi².

BMT bosh maqsadiglobal xavfsizlikni ta'minlash vaushbu yo'nalishdagi tashkilotni zomigako'ra BMT xalqlar va millatlar harakatlarini muvofiqlashtirish markazi hisoblan

¹Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2001. – Б.55-56.

²<http://www.un.org/ru/members/>

adi¹. SHuboisglobalbarqarorlikkaasosiytahdid -
terrorizmga qarshikurashdaxalqaro javobgarlik bevosita BMT zimmasidagivazifasanal
adi.

BMT Ustavidatashkilotning bosh maqsadi
“xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash”
deya belgilangan va shu maqsadga erishish yo‘li ham ko‘rsatilgan:
“tinchlikka bo‘lgan tahdidni oldini olish va tugatish,
agressiya aktlarini va tinchlikning buzilishini boshqachako‘rishlarini bostirish uchun
kollektiv choralarini samarali qo‘llash”. SHuningdek,
BMT Ustavining muqaddimasidaxalqaro tinchlikning quyidagi asoslariko‘rsatib berdi:
urushga barham berish; asosiy inson huquqlarini ishonchli mustahkamlash;
xalqaro huquqning ahamiyatini oshirish;
ijtimoiy taraqqiyotga yordam berish va erkin hayot shart-
sharoitlarini yaxshilash hamda bosh maqsadga asosiy shartni bajarish: birgalikda,
yaxshi qo‘shni chilik munosabatlarida tinch-totuv yashash;
xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash uchun kuchlarni birlashtirish;
qabul qilingan prinsiplar va usullarni o‘rnatish orqali qurollik kuchlardan umumiy manfaat
larda foydalanish².

BMTning bosh qarorgohi (shtab kvartirasi) Nyu-York shahrida joylashgan.
BMT nizomida ko‘rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash,
xalqlarning teng huquqli bo‘lishi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashga haqli ekani
haqidagi umum e‘tirof etilgan qoidaga qat’iy amal qilib, millatlar o‘rtasida do‘stlik
va hamjihatlik munosabatlarini qaror toptirish iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy
muammolarni hal etishda xalqlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish
zaruratini nazarda tutib, ana shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar
harakatini uyg‘unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

O‘tgan davr mobaynida Birlashgan Millatlar Tashkilotining jahon
siyosatidagi o‘rni va ta’siri masalasiga turli davlatlar turlicha yondashib keldi. Shu

¹Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низоми ва Халқаро суд Статути. –Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот
маркази, 2002. –Б.15.

²Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. –Т.:ЖИДУ, 2002. –Б.276-278.

sababli o'z faoliyati davrida BMT siyosiy kuchlarning kurash sahnasi bo'lib keldi. Jumladan, sobiq Sovet Ittifoqi BMT minbaridan sinfiy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida foydalanishga intildi. Ammo oxir-oqibatda BMT xalqlar va mamlakatlar o'rtasida tinchlik, hamkorlik munosabatlarini kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida tanilmoqda. Buni sobiq Yugoslaviya, Iroq, Falastin-Isroil va Afg'oniston bilan bog'liq muammolarga yondashuvlar, mustamlakachilikni tugatish, milliy davlatlarning mustaqilligini himoya qilish va boshqa shu kabi ko'plab misollarda ko'rish mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining mavqei va obro'si yil sayin oshib bormoqda. Unga a'zo bo'lishni va a'zolikka qabul etilishini har bir mustaqil davlat o'zi uchun tarixiy va faxrli bir masala deb biladi. Chunki bunday voqea ushbu davlat jahon demokratik davlatlar hamjamiyatiga qabul qilinganidan, uning safidan munosib joy egallaganidan dalolat beradi.

2-BOB.

BIRLASHGANMILLATLARTASHKILOTININGTUZILMAVIYXUSUSIY ATI

2.1. BMTningasosiyorganlarivaixtisoslashgantashkilotlari

BMT Nizomining 7-moddasiga binoantashkilotning 6 ta asosiy organlari ko'rsatilgan. Ular quyidagilardir¹:

- 1) Bosh Assambleya;
- 2) Xavfsizlik Kengashi;
- 3) Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS);
- 4) Vasiylik bo'yicha Kengash;
- 5) Xalqaro Sud.
- 6) Kotibiyat;

BOSH ASSAMBLEYA — suveren davlatlarning xakikiy demokratik vakillik organidir. Har bir a'zo davlat hududining hajmi, aholining soni, iqtisodiy va harbiy kudratidan katyi nazar, bir ovozga ega. Bosh Assambleyaning muhim qarorlari ovoz berish jarayonida ishtirok etayotgan davlatlarning ko'pchiligi tomonidan qabul qilinadi.

U Xavfsizlik kengashining nodoimiy a'zolarini saylash, EKOSOSning a'zolarini saylash, BMT yangi a'zolarini qabul qilish, BMT Bosh Kotibini tayinlash, tashkilot a'zolarining huquq va vakolatlarini cheklash, tashkilot a'zolidan chikarish, budjet va boshqa texnik-ma'muriy masalalar bo'yicha Bosh Assambleya bajarilishi shart bo'lgan qarorlar qabul qilish kabi muhim ishlarni bajaradi. Xalqaro xavfsizlik va tinchlikni qo'llab-kuvvatlashga karatilgan masalalar bo'yicha u tavsiyaviy xarakterga ega rezolyutsiya va deklaratsiyalar qabul qiladi.

¹Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низоми ва Халқаро суд Статути. –Т.:БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази, 2002. –Б.6.

Bosh Assambleya ishida BMTga a'zo bo'lmagan BMT koshida doimiy ko'zatuvchilarga ega bo'lgan (Vatikan, Shveysariya) va ega bo'lmagan davlatlar ham ishtirok etishlari mumkin. Bundan tashqari Falastin Ozodlik Harakati Tashkiloti, boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar va BMTning ixtisoslashgan muassasalari dam doimiy ko'zatuvchi maqomiga egadirlar.

XAVFSIZLIK KENGASHI— BMTning eng muhim organi bo'lib, 15 a'zodan iborat. Ushbu a'zolarining beshtasi (AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya va Xitoy) doimiy, kolgan o'ntasi nodoimiy bo'lib, ular saylanadilar.

Xavfsizlik Kengashining qoidalariga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar a'zolarining istalgan tukkiztasi yoklab ovoz bergan takdirda qabul qilinadi. Kolgan barcha masalalar bo'yicha qarorlar Kengashning barcha doimiy a'zolari ovozlari kushib hisoblaganda tukkizta a'zo yoklab ovoz bergan takdirda qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, doimiy a'zoldan bittasi yoki bir nechtasi biror-bir qarorga nisbatan qarshi ovoz bersa, bu qaror qabul kllinmaydi. Bunday holat veto qo'yilishi deb ataladi.

BMT Ustaviga ko'ra Xavfsizlik Kengashi urushning oldini olish, davlatlarning tinch hamkorlik qilishlariga shart-sharoitlar yaratishda katta vakolatlarga ega.

Xavfsizlik Kengashi tomonidan BMT Ustaviga muvofiq qabul qilingan ba'zi qarorlar me'yor o'rnatuvchi mazmunida bo'lishi mumkin.

BMT tizimi Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning boshqa organ tomonidan qayta ko'rib chiqilishi yoki da'vo qilinishiimkonini bekor qiladi. Bu qarorlar mukammal sanaladi va tekshirilishi mumkin emas.

BMT Ustaviga muvofiq Xavfsizlik Kengashi doimiy faoliyat ko'rsatishi va a'zo davlatlar nomidan tez va samaraliish kurmogi lozim. Shu maqsadda Xavfsizlik Kengashining har bir a'zosi BMT qarorgoxida doim o'z vakiliga ega bo'lishi kerak.

IQTISODIY VA IJTIMOIIY KENGASH (EKOSOS) xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik masalalariga doir faoliyatni olib boradi. EKOSOS 54 a'zoldan iborat bo'lib, ular Bosh Assambleya tomonidan uch muddatga saylanadilar va har

yili vakolatlari tugagan 18 a'zoning o'rniga yangilari saylab boriladi.

EKOSOS BMT Ustavidan kelib chiqqan xolda davlatlar o'rtasida iqtisodiy ilmiy-texnikaviy hamkorlikni ta'minlash, uni muvofiqlashtirish y¹lida samaraliish olib borishi, xalqaro huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etishi va davlatlar iqtisodiy xavfsizligini kafolatlovchi institutlar va mexanizmlar ishlab chiqishi lozim.

VASIYLIK BO'YICHA KENGASH— bu uning otaligidagi hududlarda xukmronlik qilish huquqiga ega va majburiyatlarni bajarilishini nazorat qiluvchi BMT organidir. Hozirgi kunda uning besh a'zosi (AKSH, Angliya, Rossiya, Fransiya, Xitoy) bor. Kengash har yili Nyu-Yorkda bir sessiya utkazadi. AQSH boshqaruvida bo'lgan dastlabkiikki hududdan faqat bittasi — Tinch okeani orollari (Mikroneziya) koldi. Mazkur kengash o'z faoliyati 1994 yil 1 noyabrda to'xtatgan va oxirgi vasiylik hudud Palau 1994 yil mustaqillikni qo'lga kiritib, BMT a'zo bo'lgan¹.

XALQARO SUD— BMTning asosiy sud organidir. U 15 ta mustaqil sudyadan iborat bo'lib, ular fuqaroliklaridan katyi nazar, o'z mamlakatlarida oliy sud lavozimlariga tayinlanishlari uchun talab etilgan oliy axlokiy talablarga javob beruvchi va xalqaro huquq sohasida tanilgan yuristlar orasidan saylanadi.

Xalqaro Sud — BMTning asosiy sud organidir. U 15 ta mustaqil sudyadan iborat bo'lib, ular fuqaroliklaridan katyi nazar, o'z mamlakatlarida oliy sud lavozimlariga tayinlanishlari uchun talab etilgan oliy axlokiy talablarga javob beruvchi va xalqaro huquq sohasida tanilgan yuristlar orasidan saylanadi.

Sudyalar Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan qayta saylanish huquqi bilan tukkiz yilga saylanadilar. Xalqaro Sud 3 yil muddatga rais, raisning urinbosari va kotibni saylaydi. Xalqaro Sud tarkibida ikkita ayni mamlakat fuqarolari bo'lishlari mumkin emas.

Xalqaro Sud Gaaga shaxrida joylashgan.

Xalqaro Sud sud faoliyatidan tashqari yuridik konsultatsiyaviy faoliyat ham olib boradi.

¹Совет по Опеке \ <http://www.un.org/ru/mainbodies/trusteeship/>

Xalqaro Sud davlatlar o'rtasidagi nizolarning tinch yo'llar bilan xal etilishi va jahonda adolat o'rnatilishiga karatilgan strategiyaning ishlab chiqilishida asosiy organlardan biri bo'lishi ko'zda to'tilgan.

Sudyalar Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan qayta saylanish huquqi bilan tukkiz yilga saylanadilar. Xalqaro Sud 3 yil muddatga rais, raisning urinbosari va kotibni saylaydi. Xalqaro Sud tarkibida ikkita ayni mamlakat fuqarolari bo'lishlari mumkin emas.

Xalqaro Sud Statutiga muvofiq a'zo davlatlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chikadi va yechimini beradi a'zo bo'lmagan davlatlar bo'yicha Xavfsizlik Kengashi tomonidan har bir xalat bo'yicha alohida aniqlangan shartlar asosida ish ko'radi, huquqiy masalalar bo'yicha konsultatsiyaviy xulosalar beradi (Xalqaro Sud konsultatsiyaviy xulosalarni bevosita so'rash huquqiga Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi va BMTning boshqa organlari ega. Boshqa xalqaro tashkilotlar va organlar bunday xulosani Bosh Assambleyaning ruxsati bilan so'rashlari mumkin)¹.

Xalqaro Sud Gaaga shaxrida joylashgan.

BMT Ustavida muhim siyosiy organ bo'lgan Xavfsizlik Kengashi va Xalqaro Sudning vakolatlari keskin farq qiladi. BMT Ustavining 36-modda 3-bandiga ko'ra Xavfsizlik Kengashi yuridik nizolarni xal etish uchun umumiy qoidaga muvofiq Xalqaro sud nizomidan kelib chiqqan xolda nizodagi tomonlar Xalqaro sudga murojaat qilishlari kerakligini e'tirof etadi. Xalqaro Sudning qarori nizodagi davlatlar tomonidan bajarilishi shart. Tomonlardan biri bu qarorni bajarmagan takdirda, nizodagi tomonlarning biri murojaat etganidan so'ng Xavfsizlik Kengashi qaror bajarilishini ta'minlovchi tavsiyalar yoki xatti-harakatlar qo'llashi mumkin.

Xalqaro Sud sud faoliyatidan tashqari yuridik konsultatsiyaviy faoliyat ham olib boradi.

Xalqaro Sud davlatlar o'rtasidagi nizolarning tinch yo'llar bilan xal etilishi va jahonda adolat o'rnatilishiga karatilgan strategiyaning ishlab chiqilishida asosiy organlardan biri bo'lishi ko'zda to'tilgan.

¹Mirzajonov K., Xakimov R. Mejdunarodnoe pravo. –T.: Mehnat, 1993. –C.167.

KOTIBIYAT. BMT Kotibiyati- Bosh Kotib va tashkilotga lozim miqdordagi xodimdan iboratdir. Ushbu organ BMTning boshqa organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning xayotga tadbik etilishini ta'minlaydi va BMT asosiy va yordamchi organlariga konferensiyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatadi.

BMT Kotibiyati Bosh Kotib va tashkilotga lozim miqdordagi xodimdan iboratdir. Ushbu organ BMTning boshqa organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning xayotga tadbik etilishini ta'minlaydi va BMT asosiy va yordamchi organlariga konferensiyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatadi.

Kotibiyat¹:

- birinchi, Xavfsizlik Kengashi sanksiyalaridan kelib chiquvchi, tinchlikni ta'minlovchi operatsiyalarni olib borish;

- ikkinchi, tinchlik mazmunidagi xalqaro konferensiyalarni tashkil etish va ugkazish (Dengiz huquqi bo'yicha konferensiya);

- uchinchi, jahon mikyosidagiiqtisodiy va ijtimoiy muammolar yuzasidan obzorlar tayyorlash;

- To'rtinchi, quolsizlanish va inson huquqlarining rivojlanishi kabi sohalar bo'yicha tekshiruvlar ugkazish singariishlarni bajaradi.

BMT Kotibiyatiniig funksiyalari quyidagilardan iborat:

- BMT tizimidagi organlarga xizmat ko'rsatadi;

- BMT tizimidagi organlar tomonidan dasturlarning ishlabchikarilishi va ular tomonidan ishlab chiqilgan siyosatning amalga joriy etilishini ta'minlaydi;

- BMT shugullanuvchi turli masalalar bo'yicha BMT Bosh Kotibiga axborotlar beradi;

- Majlislardagi chiqishlarning ogzaki tarjimasini amalgaoshiradi;

- sessiya majlislari hisobotlarini to'zadi, chop etadi va tar-katadi;

- arxivlarda hujjatlarni saklaydi va BMT a'zolari bo'lganbarcha davlatlarga Bosh Assambleyaning hujjatlarini tarkatadi;

- BMT a'zolari tomonidan to'zilgan shartnomalarni ruyxatgaoladi va

¹Федоров В.Н. ООН, другие международные организации и их роль в XXI веке. – М.: Логос, 2005. –С.42-78.

urganadi;

- Bosh Assambleya talabiga ko'ra boshqa ishlarni amalga oshiradi. Kotibiyat BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgoxida joylashgan. Bosh Kotib Kotibiyatni boshqaradi va bosh mansabdor shaxs hisoblanadi.

Umuman olganda, Bosh Kotib Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga muvofiq, besh yil muddatga tayinlanadi. Bosh Kotib Bosh Assambleyaga tashkilotning faoliyati haqida har yili hisobot beradi va xalqaro tinchlikka taxdid soluvchi masalalar haqida Xavfsizlik Kengashida ma'lumot beradi.

2.2. BMTning ixtisoslashgan muassasalari, dastur va fondlari

BMTning ixtisoslashgan muassasalari maxsus sohalardagi hamkorlikni ta'minlovchi hukumatlararo universal tashkilotlardir. Ular quyidagi xususiyatlarga egadirlar:

- birinchidan, bunday tashkilotlarni ta'sis etuvchi shartnomalar hukumatlararo xarakterga ega;
- ikkinchidan, ta'sis hujjatlari doirasidagi keng xalqaro javobgarlikka ega bo'ladilar;
- uchinchidan, maxsus: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, insonparvarlik va boshqa sohalarda hamkorlikni ta'minlaydilar;
- to'rtinchidan, BMT bilan yaqin aloqadadirlar.

Hozirgi kunda BMTning 16 ta ixtisoslashgan muassasalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- birinchi, ijtimoiy xususiyatli tashkilot (MOT, VOZ);
- ikkinchi, madaniy va insonparvarlik tashkilotlari (YUNESKO)
- uchinchi, iqtisodiy tashkilot (YUNIDO);
- To'rtinchi, moliyaviy tashkilotlar (MBRR, MVF, MAP, MFK);
- beshinchi, kishloqxujaligi sohasidagi tashkilotlar (FAO I-FAD);
- oltinchi, aloqa va transport sohasidagi tashkilotlar (IKAO, IMO, VPS,

MSE);

- yettinchi, meteorologiya sohasidagi tashkilot (VMO).

O'zbekiston Respublikasi BMTdan tashqari uning barcha asosiy ixtisoslashgan muassasalari a'zosi¹.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti. 1946 yilda tashkil etilgan bo'lib, qarorgoxi Jeneva shaxrida. Uning asosiy faoliyat sohadari yukumli kasalliklarga qarshi ko'rash, karantin va sanitariya qoidalarini ishlab chiqish va ijtimoiy xarakterdagi masalalardir. Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkiloti Sog'liqni Saqlash tizimlarini tashkil etishda, samaradorligini oshirishda, kadrlar tayyorlash va kasalliklarga qarshi ko'rashda kumaklashadi.

BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) 1945 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Parij shaxrida. YUNESKOning asosiy maqsadi davlatlar o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikning va ommaviy axborot vositalarining ishlatilishi yo'li bilan xalqaro tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdan iborat.

Jahon intellektual mulk tashkiloti 1967 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jeneva shaxrida, uning asosiy madsadi bugun dunyoda intellektual mulkni ximoya qilish va bu sohadagi xalqaro kelishuvlarni xayotga tadbik etishdan iborat.

Xalqaro tashkilotlar assotsiatsiyasi ma'lumotiga ko'ra, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalarida xalqaro huquq subektlari hamkorligini xalqaro-huquqiy tartibga solish sohasida 200ga yaqin hukumatlararo va nohukumatlararo tashkilotlar banddirlar. Ulardan muhimlari sifatida quyidagi tashkilotlarni keltirib o'tish mumkin. BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO). Ushbu tashkilot Nizomi 1945-yil 16-noyabrda ta'lim vazirlari konferensiyasida tasdiqlangan. Nizom 1946-yil 4-noyabrda kuchga kirdi va shu kundan boshlab BMT ixtisoslashtirilgan muassasasi, YUNESKOning tashkil topgan sanasi sifatida rasman nishonlanadi. Tashkilot Nizomi 1-moddasiga binoan quyidagi vazifalar yuklangan: xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xalqlarning ta'lim, fan va madaniyat, inson huquqlarini himoya qilish yuzasidan

¹Организационная структура \ <http://www.un.org/ru/aboutun/structure>

qonuniylik va adolatni ta'minlash sohasidagi hamkorliklarini kengaytirishga ko'maklashish. YuNESKO xalq ta'limi va madaniyatining rivojlanishini rag'batlantiradi hamda dunyoning barcha bolalarida erkin shaxs mas'ulligini qaror toptirishga qaratilgan tarbiya uchun zarur bo'lgan ta'lim metodlarini taklif etadi. Tashkilot san'at asarlari, bilimlar va nashrlarning saqlanishiga, ko'paytirishga hamda tarqatishga yordam beradi. YuNESKO Nizomiga muvofiq har bir mamlakatda YuNESKO ishlari bo'yicha umummilliy komissiyalar tashkil etiladi. Ular vazifasi mamlakat ichidagi YuNESKO faoliyatiga daxldor tashkilot va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishdir. Hozirgi kunda YuNESKO ichida quyidagi bosh yo'nalish shakllandi¹:

1. Ta'lim va kelajak. YuNESKO ustuvor vazifalari bo'lib hozirgi zamon talablariga asosan boshlang'ich ta'limni ta'minlash va oliy ta'limni rivojlantirish. Bundan tashqari, YuNESKO ta'lim sohasidagi ma'muriy xodimlar va o'qituvchilarni tayyorlashga yordam ko'rsatadi;

2. Fan taraqqiyot xizmatida. Ushbu sohada YuNESKO quyidagi dasturlarni bajarmoqda: inson va biosfera; hukumatlararo okeanografik komissiya dasturi; xalqaro gidrologiya va xalqaro geologik korrelyatsiya dasturi;

3. Ijtimoiy va gumanitar fanlar. YuNESKO inson huquqlariga rioya etish sohasida, demokratik, diskriminatsiyaning barcha ko'rinishlariga qarshi kurash sohasida, ayollar holatini yaxshilash sohalarida o'qitish va yordam ko'rsatishga katta e'tibor qaratadi;

4. Madaniyat: o'tmish, hozir, kelajak. YuNESKO madaniy faoliyati madaniy merosni himoya etishga qaratilgan. Dunyo yodgorliklari ro'yxatiga 400dan ortiq madaniyat yodgorliklari va 100 mamlakatda joylashgan tabiatlar (tabiiy hududlar) kiritilgan. Tashkilot san'at, san'atkorlik faoliyatini, madaniy o'zlikni saqlashga harakat qiladi;

5. Kommunikatsiya. Axborot va informatika inson xizmatida. YuNESKO rivojlanayotgan mamlakatlarga millat orasida g'oyalarni tarqatish maqsadida o'z

¹Xalqaro huquq: Ma'ruzalar kursi / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A. X. Saidov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. –B.259-60.

infrastrukturalarini yaratishga yordam berib, matbuot erkinligi ko'p fikrlilik va ommaviy axborot vositalarining xilma-xilligi tamoyillarini tatbiq etilishini rag'batlantiradi. YuNESKOning xalqaro gumanitar huquq va xalqaro xususiy huquq kodifikatsiyasi hamda rivojlantirish sohasidagi faoliyati sermahsul hisoblanadi. YuNESKOning 30 yillik sermashaqqat mehnati yetuklik attestati, diplomlar va ilmiy darajalarni tan olish masalalari bo'yicha oltita mintaqaviy Konvensiyaning ishlab chiqilishiga olib keldi (Yevropa, ATR, Afrika, Arab mamlakatlari, O'rta yer dengizi basseyini, Lotin Amerikasi). Umuman olganda, YuNESKO ta'lim, madaniy qimmatliklar himoyasi, mualliflik huquqi va boshqa ko'pgina sohalarda qabul qilingan 70dan ortiq xalqaro-huquqiy hujjatlarning bajarilishida faol ishtirok etib kelmoqda. YuNESKO rahbariy organlari Bosh konferensiya, Ijroiya kengashi va Kotibiyat hisoblanadi. Bosh konferensiya a'zo davlatlar vakillaridan iboratdir. U Tashkilot faoliyatining umumiy yo'nalishini belgilaydi va har ikki yilda bir marta sessiyalarga to'planadi. U o'z qaroriga muvofiq, Ijroiya kengashi qaroriga ko'ra, yoki a'zo davlatlarning kamida uchdan bir qismi talabi bilan navbatsiz sessiyaga yig'ilishi mumkin. Ijroiya kengashi Bosh konferensiya tomonidan YuNESKO a'zo davlatlari vakillari orasidan saylanish orqali tashkil etilgan. U 51 a'zodan iborat. Ijroiya kengashiga saylovlarda Bosh konferensiya unga san'at, adabiyot, fan, ta'lim sohasida bilimga ega bo'lgan shaxslarni kiritishga harakat qilmog'i lozim. Konferensiya ushbu masalalarga madaniyatlar xilma-xilligi va odil geografik taqsimot yuzasidan yondashmog'i lozim. Ijroiya kengashi yilda ikki marta navbatdagi sessiyalarga yig'iladi va Bosh konferensiya tasdiqlagan dasturlarning bajarilishiga mas'ul bo'ladi. 184 davlat YuNESKO a'zosi bo'lib hisoblanadilar. Tashkilot qarorgohi Parij shahrida joylashgan.

BMTning sanoat tarakkiyeti tashkiloti (YUNIDO) Bosh Assambleyaning organi sifatida 1966 yil Bosh Assambleyaning 17 noyabrdagi rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan. 1985 yilda YUNIDO BMTning ixtisoslashgan muassasasiga aylantirildi. Uning qarorgohi Vena shahrida. YUNIDOning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar sanoatining o'sishiga va ularning tezroq

industrializatsiyalashuviga ko‘maklashishdan iborat.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki, Xalqaro valuta Fondi Bretton-Vudsa bo‘lib utgan konferensiyada BMTning moliyaviy xarakterdagi ixtisoslashgan muassasalari sifatida tashkil etilgan. Ularning qarorgoxlari Vashington shaxrida.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki, Xalqaro valuta Fondi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi va Xalqaro moliya korporatsiyasi bir-biriga o‘zaro o‘zviy bog‘liq. Faqat Xalqaro valuta Fondi a‘zolarigina Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash bankiga a‘zo bula oladilar va faqat Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash banki a‘zolari kolgan ikki bo‘linmaga a‘zo bo‘lishlari mumkin. Ushbu tashkilotlarda ovoz berish tartibi farqli bo‘lib, unda har bir a‘zo o‘z badalining ulushiga qarab ovozlar soniga ega bo‘ladi.

Xalqaro valuta Fondi moliyaviy tashkilotlar tizimida asosiy urin tutadi. Uning asosiy maqsadi a‘zo davlatlar valuta-moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirish, a‘zo davlatlar valuta kursini, to‘lov balansini qo‘llab-kuvvatlash, ularga kiska muddatli va o‘rta muddatli qarzlar berish kabilardan iborat.

Xalqaro taraqqiyot va qayta tiklash bankining asosiy maqsadi o‘ziga a‘zo bo‘lgan davlatlar iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirishga yordam berish, chet el xususiy sarmoyadorlarini qo‘llab-kuvvatlash va sanoatni rivojlantirish uchun qarzlar berishdan iborat.

BMTning ozik-ovkat tashkiloti va kishlok xujaligi (FAO) 1945 yilda tashkil etilgan. Uning madsadlari ozik-ovkatlar si-fatini yaxshilash, aholi turmush tarzini yaxshilash, kishlok xujaligi hosildorligini oshirish, ozik-ovkat maxsulotlari taqsimoti tizimlarini yaxshilash singarilardan iborat.

Kishlok xujaligini rivojlantirish xalqaro Fondi (IFAD) 1976 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Rim shaxrida. Fondning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlar kishlok xujaligining rivojlanishiga kumak berish va buning uchun qo‘shimcha mablaglar berishdan iborat.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) 1944 yilda tashkil etilgan. Uning qarorgoxi Monreal shaxrida. IKAO xalqaro aeronavigatsiyaning

tamoyillariva usullarini rivojlantirish, xalqaro havo yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash, havo transportini rejalashtirish va rivojlantirishni qo'llab-kuvvatlash kabi maqsadlarni ko'zlab tashkil etilgan.

Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO) 1948 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Londonda. Ushbu tashkilotning madsadi dengizda yuklarni tashish va dengiz savdosi sohalorida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va dengizda xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

Jahon pochta ittifoqi 1874 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Bernda. Xalqaro pochta ittifoqining madsadi pochta aloqasini yo'lga qo'yish va uni yaxshilashdan iborat. Xalqaro pochta ittifoqiga a'zo barcha davlatlar yagona pochta hududi tashkil etadilar va bu hududda ushbu hududning yagonaligi, tranzitning erkinligi va yagona tarifni o'rnatish tamoyiliga amal qiladi.

Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi 1965 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining maqsadi elektron aloqaning barcha turlaridan samarali foydalanish va uni mukammallashtira borishga yunaltilgan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, radio tulkinlarini taqsimlash, rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko'rsatishdan iborat.

Jahon metereologiya tashkiloti 1947 yilda tashkil etilgan, qarorgoxi Jenevada. Xalqaro metereologiya tashkilotining asosiy maqsadi metereologiya bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish, metereologiya xizmatining mukammallashtirishini ta'minlash va uning yutuklaridan aviatsiya, kishlok xujaligi, kemalar katnovida va boshqa sohalarda foydalanishdir. Uning tezkor dasturi asosini bugun dunyo ob-havo xizmati tashkil etadi.

Birlashgan millatlar tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD). Birlashgan millatlar tashkiloti Taraqqiyot dasturi BMTning rivojlanish sohasidagi global tarmog'idir. Taraqqiyot dasturi o'zgarishlar tarafdori bo'lib, aholining yashash tarzini yaxshilash maqsadiga qaratilgan bilim, tajriba va manbaalarni taqdim etadi. BMTTD 166 mamlakatda faoliyat yuritib, ularda butunjahon va milliy muammolarga mustaqil yechim topishga yordam ko'rsatadi. O'z

salohiyatini rivojlantirishda mamlakatlar BMTTD va uning hamkorlarining tajribasiga suyanadilar.

BMTTDning O'zbekiston Respublikasidagi Vakolatxonasi 1993 yil yanvar oyida ochilgan. Shundan beri BMTTD bu yerda mamlakat rivojlanishini kuchaytirish yo'lida faoliyat yuritmoqda. BMTTD hukumat, fuqarolik jamiyati va O'zbekiston aholisiga o'tish davrining ko'p sonli muammolariga bardosh berishda faol yordam ko'rsatadi. O'zbekiston aholisining farovon va buyuk kelajagiga erishish yo'lidagi ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni tadbqiq qilish uchun zarur manbaalar, tajriba va bilimni qo'lga kiritishda BMTTD ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa, BMTTD 1993 yildan beri yuzdan ortiq loyihalarni amalga oshirgan. Ushbu loyihalar samarali qonuniy tizimning shakllanishiga, atrof muhitni muhofaza qilishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan zaruriy sharoitlar yaratishga hamda erkaklar bilan xotin-qizlar tenghuquliligini ta'minlashga o'zining bevosita va uzoq muddatli ta'sirini ko'rsatdilar. Amalga oshirilgan loyihalarning umumiy byudjeti yuz million AQSH dollaridan ortiq mablag'ni tashkil etdi. Buning natijasida o'n minglab insonlar manfaatdor bo'ldilar.

Hozirgi paytda bizning tashkilot O'zbekiston hududida qirqdan ortiq loyihalarni amalga oshirmoqda. Shuning bilan bir qatorda BMTTD mamlakat hukumatining muhim hamkori va rivojlanish sohasidagi xalqaro tashkilotlar orasida asosiysi hisoblanadi.

2.3. O'zbekistonning BMT doirasidagi faoliyati va uning huquqiy asoslari

O'zbekiston 1992 yil 2 martda BMTga qabul qilindi va Nyu-Yorkdagi Bosh Assambleya bosh qarorgohida mamlakatimizning davlat bayrog'i hilpiradi. Ushbu kundan e'tiboran Vatanimiz global va mintaqaviy muammolarning muhokamasida hamda muhim xalqaro qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1993 yil 24 avgustda Toshkentda BMT vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekiston o'sha kundan boshlab BMT bilan hamkorlik qilishning

ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldi. Bular, jumladan, bugungi kundagi xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan tahdidlarga qarshi kurashish, shuningdek, Afg'onistonni qayta tiklash, mintaqada ommaviy qirg'in quollarining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizi fojiasining og'ir oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalardir¹.

BMT bilan O'zbekiston hamkorligining asosiy yo'nalishi o'zaro faol siyosiy muloqotni yo'lga qo'yish hisoblanadi. O'zbekiston o'z ovozi va mavqeiga ega bo'lgan a'zo davlat sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'yib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida (1993 yil 28 sentyabr) ishtirok etib, uning yuksak minbaridan turib nutq so'zladi va Vatanimiz tarixida ilk bor O'zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi ulkan salohiyati va imkoniyatlari haqida xalqaro hamjamiyatni atroflicha xabardor qildi. BMT Bosh Assambleyasining tashkil etilganligining 50 yilligiga bag'ishlangan sessiyasida (1995 yil 24 oktyabr) so'zlagan nutqida esa Yurtboshimiz o'tgan davr mobaynida BMT faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz berganini ta'kidlab, uning ishini takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar bildirdi. Ma'lumki, o'tgan asrning 90-yillari boshida sobiq Ittifoq davlati parchalanib, uning o'rnida yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi va ular BMTning to'laqonli a'zolariga aylandi. O'tgan asrning 50-60-yillarida esa Yaponiya, Germaniya, Italiya kabi ilgari tajovuzkor rejalar ostida bo'lgan davlatlar demokratik rivojlanish yo'lidan borib, jahon mamlakatlari o'rtasida katta mavqega ega bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, BMTning Xavfsizlik kengashi hamda uning tarkibidagi ixtisoslashgan muassasalar faoliyatini tubdan qayta qurish zaruratini keltirib chiqarganini Prezidentimiz BMTning 50-sessiyasida qilgan ma'ruzasida bayon etib, Xavfsizlik kengashi faoliyatini kengaytirishni, buning uchun uning a'zolari safiga Germaniya va Yaponiyani kiritishni, BMT Bosh kotibi vakolatlarini kengaytirishni taklif qilgan edi.

¹Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. –Т.: Академия, 2007. –Б.206-8.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning taklifiga ko'ra, 2010 yil 20-21 sentyabr kunlari Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida ishtirok etdi va nutq so'zladi. Yurtboshimizning nutqi dunyo jamoatchiligida ulkan qiziqish va e'tibor uyg'otdi.

Davlatimiz rahbari xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va narkobiznesga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib, samarali kurash olib borish, mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tuzilishini isloh qilishga oid takliflar bilan chiqdi. Narkobiznes va ekstremizmning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashda barcha BMTga a'zo davlatlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni (ayniqsa Orol muammosini hal qilish) sog'lomlashtirish maqsadlarini ilgari surdi.

Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiya va xavfsizlikka doir muammolar muhokama qilinib, yangi yuz yillikning dastlabki yillarida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar belgilandi. Sammit ishtirokchilari yakdillik bilan qabul qilgan deklaratsiyada 2015 yilgacha o'ta qashshoqlikda yashayotgan odamlar sonini yarmiga kamaytirish, orttirilgan immunitet taqchilligi sindromi – OITS (SPID) kasalligining tarqalishini to'xtatish, barcha bolalar uchun boshlang'ich ta'limni ta'minlash majburiyatini o'z zimmlariga olishdi.

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha konvensiyasida va BMT tomonidan 2000 yilning 15 dekabrda qabul qilingan "Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to'g'risida"gi bayonnomada odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali choralarini ko'rish belgilab berilgan edi. Bunday jinoyatning oldini olish, bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni jazolash va odam savdosi qurbonlarining xalqaro e'tirof etilgan huquqlarini himoya qilishga qaratilgan choralarini o'z ichiga olgan keng qamrovli xalqaro yondashuv zarurligi ushbu hujjatda mustahkamlab qo'yildi.

Odam savdosiga qarshi kurashni kuchaytirish hamda mazkur bayonnoma qoidalarini milliy qonunchilikka singdirish maqsadida 2008 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunda "odam savdosi" va "odamlardan foydalanish" tushunchalariga aniq ta'rif berilgan, odam savdosiga qarshi kurashish tizimining tashkil etilish tartibi, bu sohadagi vakolatli organlar va ularning vazifalari, shuningdek, odam savdosi qurbonlarining himoyasi va ijtimoiy-huquqiy reabilitatsiyasi masalalari yoritilgan.

Yurtboshimiz BMT minbaridan butun Afg'onistonda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surganidan so'ng bu haqda shartnoma 2006 yil sentyabr oyida Semipalatinsk shahrida imzolandi. BMT Bosh Assambleyasining 61 va 63-sessiyalarida ushbu tashkilotga a'zo davlatlarning ko'pchilik ovozi bilan "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud" rezolyutsiyasi qabul qilindi, 2009 yilning mart oyidan boshlab esa, bu haqdagi shartnoma kuchga kirdi.

Bugungi kunda yadrodan xoli hududlar butun yer sharining 70 foizini tashkil etadi. Dunyoning ko'pgina davlatlari yadrodan xoli hududlar haqidagi 6 ta shartnomani qo'llab-quvvatlamogda.

Demak, dunyoning 110 mamlakati, ya'ni jahon hamjamiyatining yarmidan ko'pi yadro qurolidan butunlay voz kechish tarafdoridir¹. Bundan ko'zlangan maqsad yadro quroli mavjud bo'lgan hududlarni cheklash, yadro urushi xavfini kamaytirishdir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadrosiz hudud barpo etish haqidagi tashabbusi BMT va jahon jamoatchiligi tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu taklif BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida muhokama qilindi va u bo'yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

¹Собирова Ш. Ядро қуролидан холи зона // Маърифат, 2006 йил 12 июль.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish faqat mintaqada emas, balki butun jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar, saqlanib qolayotgan davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o'limi, epidemiyalar va boshqa muammolar insoniyatning umumiy taraqqiyot yo'lida eng jiddiy to'siqlar bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlab o'tdi¹.

Haqiqatan ham, jafokash Afg'oniston misolida 30 yildan buyon davom etayotgan fuqarolar urushining ayanchli oqibatlarini ko'rish mumkin. Bugungi kunda afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmasligi yanada ayon bo'lmoqda. Xalqaro terroristlar tomonidan 2001 yil 11 sentyabrda AQSH hududida sodir etilgan jinoiy harakatlar munosabati bilan xalqaro koalitsiya (NATO) kuchlarining Afg'onistonga kiritilishi va u yerda tinchlik o'rnatish bo'yicha tanlangan strategiya kutilgan natijalarni bermayapti. Yillar davomida cho'zilib borayotgan urush Afg'oniston xalqining ahvolini tabora og'irlashtirmoqda. Bu mamlakatning shahar va qishloqlarida tor-mor etilgan tolibon qo'shinlarining jangarilari yana qaytadan bosh ko'tarib, Hamid Karzay hokimiyatiga, tinch aholiga nisbatan terrorchilik harakatlarini sodir etmoqda.

Shu boisdan Prezidentimiz o'z nutqida Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishning muqobil yo'llarini yana bir bor atroflicha asoslab berdi.

Ma'lumki, 1997-2001 yillar davomida faoliyat olib borgan "6+2" guruhi 1997 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan BMT kotibiyatida tashkil topgan edi. Bu guruh Afg'onistonda o'sha paytda huqmron bo'lgan ikki asosiy harbiy kuch - Ahmadshoh Ma'sud boshchiligidagi shimoliy kuchlar qo'shinlari va Mulla Umar boshchiligidagi Tolibon harakati qo'shinlari o'rtasidagi qurolli to'qnashuv va mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etish va bu mamlakatda tinchlik o'rnatishga qaratilgan edi. Mazkur muloqot guruhiga:

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг БМТ саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқи// Халқ сўзи, 2010 йил 22 сентябрь.

Afg'onistonga chegaradosh 6 ta mamlakat: Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston bilan birga AQSH va Rossiya davlatlari kiritilgan edi. Muloqot guruhining birinchi uchrashuvi 1997 yil 16 oktyabrda Nyu-Yorkda bo'ldi. Mazkur anjuman O'zbekiston rahbariyatining ko'p yillik sa'y-harakatlari natijasi edi. Afg'onistondagi urushning o'z vaqtida tinch yo'l bilan hal etilmasligi mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1993 va 1995 yillardagi sessiyalarida, YEXHT (1999) Istanbul sammiti hamda boshqa bir qator nufuzli anjumanlarda xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tiborini afg'on xalqini o'zaro birodarkushlik urushidan xalos etish, mavjud mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish masalalariga jalb etgan edi.

1999 yil 19-20 iyulda "6+2" muloqot guruhining navbatdagi Toshkent anjumanida "Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etish tamoyillari to'g'risida"gi Toshkent deklaratsiyasi imzolandi. Bu hujjatda Afg'onistonda yangi hukumat tuzish, mojaroni tinch yo'l bilan hal etish, qochoqlarni o'z yashash joylariga qaytarish, mamlakat hududini minalardan tozalash, umumiy bitim imzolash, moliyaviy yordam kabi mintaqaviy dolzarb masala ko'tarilgan edi. Lekin 2001 yil 11 sentyabrdagi AQSHga terroristik hujumdan so'ng NATO blokiga a'zo davlatlarning harbiy kuchlari Afg'onistonga kiritilib, Tolibon qo'shinlari tor-mor etilgach, "6+2" guruhi faoliyati o'z-o'zidan to'xtab qoldi. Lekin 2005 yildan keyingi davrda Tolibon harakati yashirin faoliyat yuritib, yana jonlana boshladi. Afg'oniston yana harbiy to'qnashuvlar girdobida qoldi. Shu boisdan ham O'zbekiston Prezidenti 2008 yil 3 aprelda Buxarestda NATO/SEAP (Evroatlantika hamkorlik kengashi) sammitida ishtirok etib, 30 yildan buyon hozirgacha davom etib kelayotgan Afg'oniston mojarosini hal etish yuzasidan bir qator amaliy takliflarni ilgari surdi. Yurtboshimizning 2008 yil avgustida SHHT sammiti doirasidagi ma'ruzasida esa bu masala yana bir bor ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, "6+3" guruhini tuzish g'oyasi Prezidentimiz tomonidan 2009 yil 15-16 iyunda Rossiya Federatsiyasining yekaterenburg shahrida bo'lib o'tgan SHHT

anjumanida ham ilgari surildi. Davlatimiz rahbari ushbu guruh eng avvalo Afg'onistonda o'z yechimini kutib turgan quyidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda muhim rol o'ynashiga e'tibor qaratdi:

- oddiy xalqning ehtiyojini qondirish;
- aholi bandligi (ish bilan ta'minlash);
- hokimiyatning vertikal boshqaruv idoralari nufuzini mustahkamlash;
- afg'on xalqining xalqaro koalitsiya kuchlariga nisbatan ishonchini qozonish;
- xalqaro hamjamiyat imkoniyatlari hisobidan Afg'onistonga moddiy yordam va ko'mak ajratish;
- afg'on xalqining diniy, milliy, madaniy qadriyatlari va urf-odatlarini hurmat qilish;
- "6+2" muloqot guruhini "6+3" muloqot guruhiga aylantirish, ya'ni unda NATO vakolatxonasining ishtirokini ta'min etish lozim.

Prezidentimiz Islom Karimov "6+3" guruhi g'oyasiga 2010 yil 27 yanvarda Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish – ustuvor vazifamizdir" mavzusidagi ma'ruzasida ham alohida to'xtalib o'tgan edi. "6+3" muloqot guruhining eng muhim maqsadi – Afg'onistonda bir-biriga qarshi kurashayotgan kuchlarga harbiy harakatlarni to'xtatish dasturini taklif etish, mamlakatni parokanda qilayotgan asosiy muammo va ziddiyatlar bo'yicha o'zaro murosa asosidagi yechimlarni topish, xavfsizlikni ta'minlash hamda barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda zarur kafolatlarni berish lozimligi qayd etildi.

Ushbu dasturda iqtisodiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy, infratuzilma va gumanitar loyihalarni amalga oshirish, aholi bandligi muammolarini, qashshoqlik, huquqsizlikka qarshi kurash bo'yicha eng dolzarb vazifalarni hal etish zarurligi aytiladi. Bunday maqsadlarga erishish uchun hozircha Afg'onistonda turgan tinchliksevar koalitsiya kuchlari yordam berishi mumkin.

Prezidentimiz Islom Karimovning BMT sammitida so'zlagan nutqida 2010 yilning iyunida Qirg'izistonda ro'y bergan fojiali voqealarning sabab va

oqibatlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu mamlakatlarda yuzaga kelgan keskinlik va qarma-qarshiliklar, shuningdek, qonuniy hokimiyatning zaifligi Qirg'iziston janubida millatlararo qonli va shafqatsiz voqealarning ro'y berishiga sabab bo'ldi. Natijada yuzlab begunoh odamlar qurbon bo'ldi, minglab tinch aholi jabr ko'rdi. Qirg'izlarning o'zi ham, respublika janubida yashayotgan ko'p sonli o'zbeklar ham uchinchi kuchlar tomonidan puxta o'ylangan va uyushtirilgan aksiyaning qurboniga aylandi.

Mamlakatimiz Prezidenti haqqoniy ravishda ta'kidlab o'tganidek, uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan bu aksiyadan maqsad mamlakatda nafaqat tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish, balki O'zbekistonni ham ushbu vahshiyona xunrezlikka tortish, pirovard natijada millatlararo qarama-qarshilikniikki qo'shni mamlakat – Qirg'iziston hamda O'zbekiston o'rtasidagi davlatlararo qarama-qarshilikka aylantirishdan iborat edi.

O'ta murakkab va o't olib ketish xavfi bo'lgan mazkur vaziyatda qabih niyat bilan tashkil etilgan qonli voqealarning keng yoyilib ketishiga yo'l qo'ymaslik biz uchun nihoyatda og'ir muammoga aylandi. O'z hududimizda ming-minglab qochqinlar, bolalar, xotin-qizlar, qariyalarni qabul qilish, ularni joylashtirish va barcha zarur narsalar bilan ta'minlash juda katta kuch, mehnat va resurslarni talab qildi. Shu bilan birga, chegara hududida osoyishtalikni saqlash, favqulodda oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan qahru g'azabni jilovlash, ekstremizmning shiddatli tus olishining oldini olish zarur edi. Yaxshi bilamizki, ushbu zaminda o'zbeklar va qirg'izlar azal-azaldan yonma-yon yashab kelgani va bundan buyon ham ularning farzandlari hamda avlodlari ko'p asrlar mobaynida birga yashashini teran anglash bizga va xalqimizga mazkur fojيانing Markaziy Osiyoda qarama-qarshiliklarning yangi, keng o'chog'iga aylanib ketishining oldini olishda muhim omil bo'ldi.

O'zbekiston BMTning Taraqqiyot dasturi, YUNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, BMTning qochoqlar ishlari bo'yicha agentligi va boshqa halqaro institutlari bilan O'zbekiston hududidagi qirg'izistonlik qochoqlarga yordam ko'rsatish borasida yaqindan hamkorlik qildi.

O'zbekistonning Qirg'iziston janubidagi zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatish borasidagi tadbirlari hamda bu masala bo'yicha oqilona va vazmin siyosati jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi. Bir qator davlatlar rahbarlari, BMT Bosh kotibi janob Pan Gi Mun va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari, shuningdek, Qirg'iziston Prezidenti O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovga 2010 yil iyun oyida Qirg'iziston janubidagi fojiali voqealar oqibatida yuzaga kelgan vaziyatni bartaraf etish borasidagi O'zbekistonning konstruktiv sa'y-harakatlari uchun minnatdorlik bildirishdi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib, 2010 yil 11-14 iyun kunlari Qirg'iziston janubida sodir etilgan talon-tarojliklar, xunrezlik va zo'ravonliklar bo'yicha mustaqil xalqaro tekshiruv o'tkazish, ushbu qonli vaxshiliklarning barcha bu Yurtmachilari, tashkilotchilari va ijrochilarini jinoiy javobgarlikka tortishni muhim vazifa sifatida yana bir bor qat'iy ta'kidladi. Bu, albatta, qo'shni Qirg'izistonda mamlakatlararo qonli voqealarning yana avj olishining oldini olish imkonini beradi.

O'zbekiston BMT va uning narkoagressiyaga qarshi ixtisoslashtirilgan muassasalari bilan ham yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. 2002 yil oktyabrda BMT Bosh kotibi Kofi Anandning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Tashrif chog'ida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMTning giyohvand moddalarni nazorat qilish markazini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi va ushbu markaz Almati shahrida ochilishi haqida kelishib olindi.

Ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash hozirgi anomal tabiiy o'zgarishlar sharoitida Mingyillik deklaratsiyada belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va BMTning ekologiya sohasidagi hamkorligi doirasida Orolbo'yidagi vaziyat degradatsiyasining oldini olish va Orol fojiasi oqibatlarini yengillashtirish bo'yicha qabul qilingan tezkor choralar ustuvor ahamiyatga

ega.¹Ushbu masalani hal etish borasida BMTning O'zbekistonga ko'mak berishga tayyorligi bayon etildi.

Orol dengizi ekologik fojiasining jiddiyligini inobatga olgan holda, 2008 yilning 11-12 mart kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston va BMT vakillarining faol ishtirokida "Orol muammosi, uning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri, oqibatlarini yengillashtirish borasida xalqaro hamkorlik choralari" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Aslida Orol fojiasi ekologiya muammolariga mas'uliyatsiz munosabatda bo'lishning yaqqol misolidir. Bir paytlar noyob va go'zal dengizlardan biri bo'lgan Orol bir avlod hayoti davomida deyarli qurib va yo'qolib borayotgan suv havzasiga aylanmoqda. Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi 7 barobar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa o'nlab barobar oshib, dengizni tirik organizmlar yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada bu yerdagi qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo'qoldi.

2010 yil aprel oyida BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun Orolbo'yi mintaqasiga tashrif buyurdi. Uning so'zlariga ko'ra, ko'rgan manzaralari unda o'chmas taassurot qoldirgan. Pan Gi Mun Orol muammosini hal etishga ko'maklashishga, ushbu ekologik fojia oqibatlarini bartaraf qilish uchun BMTning ekspert salohiyati, moliyaviy va boshqa resurslarini jalb etish borasida barcha sa'y-harakatlarni safarbar qilishga tayyor ekanini bildirdi.

Prezidentimiz Islom Karimov Orol dengizining qurishi davom etayotganini va uning atrofida gumanitar falokat sodir bo'layotgani sababli Orolning tabiiy biologik fondini asrab-avaylash, dengiz inqirozining atrof-muhitga, minglab va millionlab odamlar hayotiga halokatli ta'sirini kamaytirish hozirgi vaqtdagi eng muhim dolzarb vazifa ekanini ta'kidlab o'tdi.

Yurtboshimiz o'z nutqida Orolbo'yi hududiikka asosiy manba – Amudaryo va Sirdaryo hisobidan suv bilan ta'minlanishi, ushbu daryolar oqimining kamayishi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг БМТ саммити Мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқи// Халқ сўзи, 2010 йил 22 сентябрь.

mazkur keng mintaqaning shundoq ham zaif ekologik muvozanatini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkinligini hisobga olish zarur ekanini bayon etdi. Bunday sharoitda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, 30-40 yil avval, sobiq sovet davrida ishlab chiqilgan, mazkur daryolarning yuqori qismida ulkan gidroinshootlarni qurish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga har qanday urinishlar, ushbu inshootlar barpo etiladigan zonalarining seysmik xavfi 8-9 ballni tashkil etishi hisobga olinadigan bo'lsa, ularning barchasi ekologiyaga o'nглаb bo'lmaydigan zarar yetkazishi va xavfli texnogen halokatlarga olib kelishi mumkinligi ayon bo'ladi.

O'zbekiston hammuallifligida ishlab chiqilgan "Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchilik maqomini berish" to'g'risidagi rezolyutsiya BMT Bosh Assambleyasi 63-sessiyasida barcha a'zo davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan muhim hujjatlardan biri bo'ldi. Pan Gi Mun Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi doirasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni to'la qo'llab-quvvatladi.

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizi muammolarini hal etish suv-energetika resurslaridan oqilona va samarali foydalanish masalalari bilan bevosita bog'liq. Transchegaraviy daryolarni ekologik nuqtai nazardan himoya qilish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi xalqaro huquq me'yorlariga qat'iy rioya etish alohida ahamiyatga ega. Bu masala bo'yicha BMTning 1991 yil 25 fevral, 1992 yil 17 mart va 1997 yil 21 maydagi konvensiyalari davlatlarning "transchegaraviy ta'sirga ega bo'lgan faoliyatini amalga oshirishda transchegaraviy daryolarning xususiyatini hisobga olgan holda, ulardan oqilona va adolatli tarzda foydalanishga" majbur ekanini uqtiradi.

O'zbekiston, xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra, Markaziy Osiyoning suv-energetika muammolariga uchinchi davlatlarning aralashuvini ma'qul ko'rmaydi. O'zbekiston BMT konvensiyalariga binoan transchegaraviy daryolardagi barcha gidroenergetika loyihalarini (Qirg'izistondagi Qambarota-1, Qambarota-2, Tojikistondagi Rogun va hokazo) BMT shafeligi ostida xalqaro ekspertizadan o'tkazish nuqtai nazarini qat'iy ilgari suradi.

XULOSA

Mazkur kurs ishi BMT tuzilmasi, uning asosiy organlari va ixtisoslashgan muassasalari, turli dastur va fondlarini tahlil etgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xalqaro tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi aloqani vujudga keltiruvchi asosiy tashkilotlardir. Eramizdan avvalgi VI asrlarda qadimgi Grekistiyada ilk domiy xalqaro birlashmalar tuzilgan edi. Bular shahar yoki jamoalar ittifoqi (masalan, Lakademin yoki Simmakil Delossi) yoki qabila va shaharlarning diniy -siyosiy ittifoqlari edi (masalan, Delfin - Firmanillarning amfiktioniysi). Ular kelajakdagi xalqaro tashkilotlarning namunasi bo'lgan.

2. Xalqaro tashkilotlar bu-muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida tuzilgan, davlatlar a'zolarining huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan hamda xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilgan davlatlarning umumlashmasidir.

Bunda xalqaro tashkilot tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi besh belgi: shartnomaga asoslanganlik, muayyan maqsadlarning mavjudligi, tashkiliy tuzum, mustaqil huquqlar va majburiyatlar, xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilganlik to'g'risida gap yuritish mumkin.

3.

BMT bosh maqsadiglobal xavfsizlikni ta'minlash va shubho'nalishda tashkilotni zomigako'ra BMT xalqlar va millatlar harakatlarini muvofiqlashtirish markazini hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti – dunyodagi umuminsoniy manfaatlar asosida faoliyat olib boradigan eng nufuzli xalqaro tashkilot (1945 yil 24 oktyabr). BMTga hozirgi vaqtda 192 ta mamlakat a'zo. BMT – yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlar va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945 yilda, Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilotdir.

4. BMT Nizomining 7-moddasiga binoantashkilotning 6 ta asosiy organlari ko'rsatilgan. Ular quyidagilardir: Bosh Assambleya; Xavfsizlik Kengashi; Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS); Vasiylik bo'yicha Kengash; Xalqaro Sud; Kotibiyat;

5. BMTning ixtisoslashgan muassasalari maxsus sohalardagi hamkorlikni ta'minlovchi hukumatlararo universal tashkilotlardir. Ular quyidagi xususiyatlarga egadirlar:

Birinchidan, bunday tashkilotlarni ta'sis etuvchi shartnomalar hukumatlararo xarakterga ega;

Ikkinchidan, ta'sis hujjatlari doirasidagi keng xalqaro javobgarlikka ega bo'ladilar;

Uchinchidan, maxsus: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, insonparvarlik va boshqa sohalarda hamkorlikni ta'minlaydilar;

To'rtinchidan, BMT bilan yaqin aloqadadirlar.

Hozirgi kunda BMTning 16 ta ixtisoslashgan muassasalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

Umuman

olganda,

O'zbekistonning BMT bilan munosabatlariga to'xtalib o'tganda qisqacha aytish mumkin, O'zbekiston 1992 yil 2 martda BMTga qabul qilindi va Nyu-Yorkdagi Bosh Assambleya bosh qarorgohida mamlakatimizning davlat bayrog'i hilpiradi. Ushbu kundan e'tiboran Vatanimiz global va mintaqaviy muammolarning muhokamasida hamda muhim xalqaro qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1993 yil 24 avgustda Toshkentda BMT vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekiston o'sha kundan boshlab BMT bilan hamkorlik qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldi. Bular, jumladan, bugungi kundagi xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan tahdidlarga qarshi kurashish, shuningdek, Afg'onistonni qayta tiklash, mintaqada ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, ekologik muammolarni hal etish, Orol dengizi fojiasining og'ir oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahbariy adabiyotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiasarlari

- 1.1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. - Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
- 1.2. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т.8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 528 б.
- 1.3. Каримов И.А.. Тинчлик ва ҳафсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Т.12 – Т.: Ўзбекистон, 2004.- 400 б.
- 1.4. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997. - 326.б.
- 1.5. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. 20.09.2010//http://press-service.uz/uz/news/show/vistupleniya/address_by_h.e._mr._islam_karimov_p_resid

2. Ҳуқуқий меъёрий ҳужжатлар

- 2.6. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низоми ва Халқаро суд Статути. – Т.:БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази, 2002. –62 б.
- 2.7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2009. –40 б.

3. Дарслик, ўқув қулланма ва монографиялар

- 3.8. Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. – Т.: Академия, 2007. –301 б.
- 3.9. Mirzajanov K., Hakimov R. Mejdunarodnoe pravo. –Т.: Mehnat, 1993.
- 3.10. Muxammedjanov O.Z., Fayziev M. Mejdunarodnoe sotrudnichestvo i Uzbekistan. Vipusk IV. Т., 2000.
- 3.11. Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. –Т.:ЖИДУ, 2002. –559 б.
- 3.12. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. Дарслик. – Т.:Ўқитувчи, 2008. –248 б.
- 3.13. Saidov A.X., Inomdjonova G.Z., Mamatkulov A. Xalqaro ommaviy huquq bo‘yicha o‘quv dasturi. Xalqaro huquqshunosga yordam. III nashr. Т., 2000.
- 3.14. Tuxmuxamedov R.A., Hakimov R.T. Osnovi mejdunarodnogo prava. Т., 1998.
- 3.15. Umaraxunov I.M.Respublika Uzbekistan i mejdunarodnoe dogovornoe pravo. Т., 1998.
- 3.16. Xalqaro huquq: Ma’ruzalar kursi/ Mas’ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A. X. Saidov. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 279 б.

4. Jurnal va internet manbalari

- 4.17. Murthy C.S.R. New Phase in UN Reforms: Establishment of the Peacebuilding Commission and the HumanRights Council. // International Studies. –Vol.44. –№.1. –2007. –P.39-56.
- 4.18. Федоров В.Н. ООН, другие международные организации и их роль в XXI веке. – М.: Логос, 2005. –С.42-78.
- 4.19. Murthy C.S.R. The U.N. Counter-Terrorism Committee: An Institutional Analysis // FES Briefing Paper. –№.15. –2007. –P.2-4.
- 4.20.<http://www.un.org>